

biri esa "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, rejalariga erishish uchun ushbu keltirilgan dastur, loyihalar kerakli baza bo'la oladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytib o'tish mumkinki, har sohada innovatsiya, yangiliklar muhimdir. Davlatning byudjet boshqaruvidagi shaffoflik, innovatsiyalar esa har bir mamlakatning, mamlakatdagi fuqarolarning farovonliklari, mamlakatning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Yuqorida kelitirib o'tilgan Janubiy Koreyaning innovatsion loyihalari O'zbekistonning maqsadlari va rejalarini amalga oshirishda andoza sifatida foydalansa bo'ladi, nafaqat Janubiy Koreya boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning innovatsion yechimlaridan andoza sifatida foydalanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J.R. Zaynalov, B.Sh.Xusanov, S.S.Aliyev, Sh.M.Latipov "Davlat byudjeti" O'quv qo'llanma, 2021—316 bet
2. <https://www.imv.uz/> -O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlar xarajatlari.
3. <https://www.moef.go.kr>- Janubiy Koreya Iqtisodiyot va Moliya vazirligi.
4. <https://www.participatorybudgeting.org> - Fuqarolik ishtiroki va shaffoflik bo'yicha manbalar. Participatory Budgeting in South Korea.
5. <https://www.greengudget.kr> - Ekologik byudjetlashtirish va yashil texnologiyalar. Green Budgeting in South Korea.
6. <https://lex.uz/mact/-27999>- O'zbekiston Respublikasining qonuni. Budget tizimi to'g'risida.

KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGIDA ICHKI AUDITNING ROLI

***Hojiyeva Gulnora Xabibullayevna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Audit kafedrasi assistenti*

Bugungi murakkab iqtisodiy munosabatlar sharoitida ichki auditning imkoniyatlari kengayib, turli sohalarda keng qo'llanmoqda, bu esa uni, tashkilotning umumiyl boshqaruvi va muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishiga olib kelmoqda. Texnologiyalar rivojlanishi va global biznesni boshqarishning murakkablashuvi ichki auditning ahamiyatini yanada oshirib, uning zaruriyatini yuzaga olib chiqmoqda.

Iqtisodiy munosabatlar yaxshi rivojlanayotgan bugungi Yangi O'zbekistonda ko'plab sohalar qatorida auditorlik faoliyatini yanada takomillashtirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda, bundan bir necha yil oldin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ushbu sohani isloq qilish uchun qabul qilingan qonun hujjalarni e'tirof etish maqsadga muvofiqdir. Bunday islohotlar bugungi

kunda ham ko'plab amalga oshirib kelinayotganligi amaldagi ijobiy o'zgarishlar orqali sezilarli yutuqlarga erishmoqda.

Islohotlarning amalga oshirilishida poydevor bo'lib xizmat qilayotgan ana shunday qonun hujjatlarining birida: "Mamlakatimizda auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimi yuzaki tusga ega bo'lib, professional tayyorgarlikning va auditorlik xizmatlari sifatining zaruriy darajasini, shu jumladan auditorlik faoliyatining xalqaro standartlariga mosligini ta'minlamayapti, bu esa auditor kasbi nufuzining pasayishiga olib kelmoqda" deyilgan edi.²³¹

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugun O'zbekistonda ichki audit tizimi dunyoning eng yaxshi amaliyotlari asosida yangilanmoqda. Masalan, Auditning Xalqaro Standartlariga o'tish amaliyoti muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Ichki audit o'zi nima va u kompaniyaga qay darajada foydali bo'lisi mumkin? Nima uchun ichki audit mulkdorlar e'tiborini tortgan?, kabi savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Ichki audit - tasdiqlangan biznes-reja bajarilishini; korporativ boshqaruv prinsiplariga rioya qilinishini; buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobning holatini;

soliqlar va yig`imlar to`g`ri hisoblab chiqilishi va to`lanishini; moliya-xo`jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini; aktivlarning holatini; ichki nazaratning holatini tekshirish va ularning monitoringini olib borish yo`li bilan faqat ichki audit xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.²³²

Albatta, aytish joizki, ichki audit yangi tushuncha bo'limgani holda u uchinchi ming yillik boshlarida alohida e'tiborni torta boshladi. Bugun dunyoda unga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganligi esa ko'plab omillarga bog'liq.

Birinchidan, ichki audit faoliyati to`g`ri yo'lga qo'yilishi va amalga oshirilishi natijasida, kompaniyaning past baholanayotgan ichki resurslarini aniqlanishi, ulardan oqilona foydalanish esa samaradorlikni bir necha barobarga oshirishi mumkin.

Ikkinchidan, ichki audit- ajralmas qismi hisoblangan kompaniyada yaxshi korporativ boshqaruvning mavjudligi potentsial investorlar va kreditorlar uchun ijobiy signal bo'lib, kompaniyaning investitsion jozibadorligini oshiradi.

Uchinchidan, ichki audit sifatli va ishonchli faoliyat yuritayotgan kompaniyada moliyaviy barqarorlik yuqori bo'ladi va natijada keljak uchun puxta moliyaviy rejalarни tuzish imkonini beradi.

Va nihoyat, qisqa yoki o'rta muddatli istiqbolda xalqaro kapital bozorlariga chiqish rejalar kompaniyalarga ichki audit xizmatlarini yaratish zarurligini taqozo qiladi. Fikrimiz dalili sifatida aytish mumkinki, allaqachon, g'arb davlatlarida amal qilayotgan yirik fond birjalarining qoidalari mavjud. Ulardan biriga ko'ra, kompaniyaning qimmatli qog'ozlarini birjaning kotirovka

²³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi 3946-soni Qarori.

²³² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-soni Qaroriga 2-ilova.

varaqlariga kiritishning majburiy sharti sifatida kompaniyada ichki audit mavjudligini nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ichki audit juda ko'plab vazifalarni hal qila oladi, ammo bu kompaniyaning mavjud barcha muammolariga universal yechim bo'ladi degani emas. Masalan, 1) Ichki audit barcha inson omili ishtirokidagi xatoliklarni yoki kasbiy suiiste'mollik holatlarini har doim ham bartaraf eta olmaydi, lekin u ularning yuzaga kelishini minimallashtirishi va erta aniqlashi mumkin (albatta sifatli audit amallari orqali). 2) Ichki audit har bir hisobga oid muomalalarni doimiy bir maromda tekshira olmaydi, lekin dastlabki xavflarni to'g'ri tahlil qilish orqali riskni pasaytirishi mumkin.

Foydalanolgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi 3946-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-sonli Qaroriga 2-ilova.

3. A. Sonin «Зачем компании нужен внутренний аудит?», статья эл.журн., ИВА май, 2024.

4. A.Tuychiyev, I.Qo'ziyev, O.Masharipov A.Avlokulov, M.Yakubov, I.Sherimbetov, I.Avazov; Audit. Darslik. — T. : "Iqtisod-Moliya".

5. Qudbiyev, N. T., Ulug'bekov Erkinjon (2022). Tadbirkorlik subyektlarida ichki nazoratning samarali tizimi sifatida ichki auditning o'rni va ahamiyati., Scientific progress, 3(1).

6. Мехмоналиев У., «Вопросы организации службы внутреннего аудита на предприятиях», (Цифровая экономика), (6), 415-423.

7. Жуков, Д. О., & Каткова, Е. А. (2024). «Внутренний аудит в системе обеспечения финансовой безопасности организаций АПК». Экономика и бизнес: теория и практика, (6-1 (112)).

REAL SEKTOR VA BUDJET-SOLIQ TIZIMI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI

*Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi
O'zMU "Iqtisodiyot nazariyasi"
kafedrasi tayanch doktoranti*

Real sektor — iqtisodiyotning ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonini ifodalaydi, budget-soliq tizimidagi o'zgarishlar real sektor rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Real sektor va budget-soliq tizimi o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ularning bir-biriga ta'siri va bog'liqligini tahlil qilish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror va samarali rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga egaligi bilan ahamiyatlidir. Real sektor va budget-soliq tizimi tushunchalariga izoh beradigan bo'lsak, real sektor - iqtisodiyotning ishlab chiqarish faoliyatini belgilovchi bo'limi bo'lib, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar